

19. Sonlarni qo'shish (25 + 6)

Yondosh mavzu:
Qurilish

Xonadan o'tib qo'shish.



$$\begin{array}{r} \boxed{} + \boxed{} = 16 \\ + \\ \boxed{} - \boxed{} = 12 \\ \parallel \quad \parallel \\ 26 \quad 16 \end{array}$$

1. Yechishni tushuntiring.

$$\bigcirc \bigcirc \bigcirc + \bigcirc \bigcirc \bigcirc = \bigcirc \bigcirc \bigcirc \bigcirc \bigcirc \bigcirc = \bigcirc \bigcirc \bigcirc \bigcirc$$

2 o'nl. 5 birl. + 6 birl. = 2 o'nl. 11 birl. = 3 o'nl. 1 birl.

2. Chizma qaysi misol uchun chizilgan?
Qolgan misollarni namuna bo'yicha yeching.

$$\begin{array}{ccccccc} \boxed{\bigcirc \bigcirc \bigcirc} + \bigcirc \bigcirc \bigcirc & = & \bigcirc \bigcirc \bigcirc \bigcirc \bigcirc \bigcirc & + & \bigcirc \bigcirc & = & \bigcirc \bigcirc \bigcirc \bigcirc \bigcirc \bigcirc \\ 9 + 23 & & 7 + 25 & & 26 + 5 & & 47 + 8 \end{array}$$

3. Tenglamalarni yeching.

$$b + 37 = 48$$

$$80 - y = 56$$

$$m - 58 = 8$$

4. Birinchi uyning qurilishi uchun 19 mashina beton sarflandi, ikkinchi uy uchun undan 4 mashina ko'p beton sarflandi. Ikki uyning qurilishi uchun nechta mashina beton sarflangan?

19. Sonlarni qo'shish (25 + 6)




5. a va b sonlari bir birlikka o'zgarganda, m soni qanday o'zgaradi?

a	23	24	25	26	27
b	7	6	5	4	3
$m = a + b$					



6. Bu "aqlli uy" loyihasi.



Mehmonxona 7 ga 7 katak

Oshxona 5 ga 4 katak

Yotoqxona 5 ga 5 katak

Hojatxona 4 ga 4 katak

Balkon 2 ga 6 katak

Uyning xonalarini shunday joylashtiringki, bo'sh joy qolmasin va xonalar bir-biriga qo'shilib ketmasin.



7. Yangi qurilayotgan uylarda 27 ta bir xonali xonadon bor, ikki xonali xonadon bir xonalidan 8 ta ko'p, uch xonali xonadon ikki xonali xonadondan 12 ta ko'p. Ushbu uyda nechta uch xonali xonadon bor?



8. Hisoblang.

$$6 + 18$$

$$45 + 9$$

$$37 + 6$$

$$29 + 5$$

$$64 + 8$$

$$8 + 19$$